O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI
QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Qiziltepa tumani, O‘zbekiston shoh ko'chasi 43-uy

2024 - yil 1 - mart 93-5-72-Q/24 Qiziltepa tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57 sonli Qaroriga muvofiq ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi 2-bandi 4-xatboshisi, 23-moddasi, 39-moddasi hamda 40-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun 12 foizgacha miqdorida jami 194 ta (12 %) kvota ish o‘rinlari, jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 12,6 foiz (24 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 73,9 foiz (142 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 6,7 foiz (13 kishi); nogironlar uchun 7,2 foiz (12 kishi);

pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 0,51 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 1,02 foiz (2 kishi);

2. Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga: Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57 sonli Qaroriga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) ta’minlash va zaxira ish o‘rinlarini “Yagona milliy mehnat tizimi” (YaMMT) dasturida aks ettirish ;

ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash; ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shasxlarni ish bilan ta’minlash uchun 2023-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining

kamida 25 foizi uchun, 2024- yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va buyruq nusxalarini Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasiga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘lash tashkilotning zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

5. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish qidirishda qiynalayotgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab

quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57 sonli Qaroriga asosan ushbu ish o‘rinlaridan ortiq tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlik jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. Tashkilotlar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

7. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi besh kun muddatda ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonidan ortiq ishga qabul qilgan tashkilotlarga subsidiyalar ajratilishi ta’minlansin.

10. Ushbu qarorning rasmiy nashrda e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta’minlash tuman hokimligi axborot xizmati rahbari A.Umedov zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Hayitov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **B.Bobomurodov**

Qiziltepa tuman hokimining
2024-yil 1-martdagi
93-5-72-Q/24-son qaroriga
1-ilova

T/r	Korxona, tashkilot, muassasalar nomi	Xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam soni	Shu jumladan							
				O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar va safarbarlik chaqiruvi zaxirasiga kiritilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiya-oldi yoshdagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosi qurbonlari	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	Navoiy viloyati Yo‘llari hududiy bosh boshqarmasiga Qarashli “Navoiy Ko‘priklardan Foydalanish” unitar korxonasi	355	10	0	8	1	0	0	1	0	0
2	Qiziltepa tuman Yo‘llardan foydalanish Davlat muassasasi	133	6	1	3	2	0	0	0	0	0
3	Qiziltepa tuman Chorvachilik va veterinariya bo‘limi	56	2	0	2	0	0	0	0	0	0
4	Obodonlashtirish boshqarmasi	262	5	2	3	0	0	0	0	0	0

5	Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi	2533	25	4	18	0	3	0	0	0	0
6	Qiziltepa tuman SEO va JS bo‘limi	72	5	3	2	0	0	0	0	0	0
7	Qiziltepa tuman ABMK boshqarmasi	362	12	1	8	3	0	0	0	0	0
8	Toshrabot - O‘rtacho‘l ITB	82	4	0	3	0	0	0	1	0	0
9	1-sonli kasb-hunar maktabi	73	3	0	2	0	1	0	0	0	0
10	2-sonli kasb-hunar maktabi	61	4	1	3	0	0	0	0	0	0
11	Navoiy Arxiteutura va kurilish texnikumi	37	3	1	2	0	0	0	0	0	0
12	Bolalar va O‘smirlar spot maktabi	89	3	1	1	1	0	0	0	0	0
13	36-Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashgan maktab internati	220	2	1	1	0	0	0	0	0	0
14	13-son bolalar musiqa va sanat maktabi	40	2	0	2	0	0	0	0	0	0
15	1-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	50	2	0	1	0	0	1	0	0	0
16	2-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	35	1	0	1	0	0	0	0	0	0

17	**3-sonli maktabgacha ta’lim muassasi**	**37**	**1**	**0**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

18	4-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	59	1	0	1	0	0	0	0	0	0
19	5-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	46	2	0	2	0	0	0	0	0	0
20	6-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	25	1	1	0	0	0	0	0	0	0
21	7-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	47	1	0	1	0	0	0	0	0	0
22	8-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	48	1	0	1	0	0	0	0	0	0
23	9-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	27	1	0	1	0	0	0	0	0	0
24	10-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	34	1	0	1	0	0	0	0	0	0
25	11-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	30	2	0	2	0	0	0	0	0	0
26	12-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	35	2	0	1	0	1	0	0	0	0
27	13-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	46	1	0	1	0	0	0	0	0	0
28	14-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0
29	15-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	30	1	0	1	0	0	0	0	0	0

30	**16-sonli maktabgacha ta’lim muassasi**	**39**	**1**	**0**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

31	19-ssonli maktabgacha ta’lim muassasi	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0
32	20-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	37	1	0	1	0	0	0	0	0	0
33	22-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	32	1	0	1	0	0	0	0	0	0
34	24-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	38	1	0	1	0	0	0	0	0	0
35	Tuman Barkamol avlod bolalar markazi	49	1	0	1	0	0	0	0	0	0
36	27-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	26	1	0	1	0	0	0	0	0	0
37	30-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	36	1	0	1	0	0	0	0	0	0
38	31-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	38	2	0	1	0	1	0	0	0	0
39	32-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	46	1	0	1	0	0	0	0	0	0
40	35-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	33	1	0	1	0	0	0	0	0	0
41	36-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	47	1	0	1	0	0	0	0	0	0
42	37-sonli maktabgacha ta’lim muassasi	39	2	2	0	0	0	0	0	0	0

43	**1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**165**	**2**	**0**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

44	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	2	0	2	0	0	0	0	0	0
45	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	77	2	0	1	1	0	0	0	0	0
46	4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	83	3	0	2	1	0	0	0	0	0
47	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	178	2	0	2	0	0	0	0	0	0
48	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	50	1	0	1	0	0	0	0	0	0
49	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	3	0	2	1	0	0	0	0	0
50	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	3	0	2	0	1	0	0	0	0
51	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	1	0	1	0	0	0	0	0	0
52	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	55	2	0	2	0	0	0	0	0	0
53	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	64	1	0	1	0	0	0	0	0	0
54	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	144	2	0	2	0	0	0	0	0	0
55	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	120	2	0	2	0	0	0	0	0	0
56	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	2	0	1	0	1	0	0	0	0
57	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	171	1	0	1	0	0	0	0	0	0
58	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	1	0	1	0	0	0	0	0	0
59	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	68	2	1	1	0	0	0	0	0	0
60	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	97	2	0	2	0	0	0	0	0	0
61	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	117	2	0	2	0	0	0	0	0	0

62	**20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**74**	**2**	**0**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**

63	21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	96	1	0	1	0	0	0	0	0	0
64	22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	92	1	0	1	0	0	0	0	0	0
65	23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	77	2	0	1	0	1	0	0	0	0
66	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	33	8	3	1	1	3	0	0	0	0
67	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	76	1	0	1	0	0	0	0	0	0
68	26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	104	1	0	1	0	0	0	0	0	0
69	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	147	1	0	0	1	0	0	0	0	0
70	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	78	2	1	1	0	0	0	0	0	0
71	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	56	1	0	1	0	0	0	0	0	0
73	30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	61	2	0	2	0	0	0	0	0	0
74	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	70	3	0	2	1	0	0	0	0	0
75	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	41	1	0	1	0	0	0	0	0	0
76	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	89	2	0	2	0	0	0	0	0	0
77	34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0
78	35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	45	1	0	1	0	0	0	0	0	0
79	36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	1	0	1	0	0	0	0	0	0
80	37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	70	1	0	1	0	0	0	0	0	0
81	38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	2	1	1	0	0	0	0	0	0

82	41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	87	2	0	2	0	0	0	0	0	0

83	42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	80	1	0	1	0	0	0	0	0	0
84	43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	1	0	1	0	0	0	0	0	0
Жами		8811	194	24	142	13	12	1	2	0	0